



Tuxtasin TASHMETOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: toshmetovtuxtasin@gmail.com

F.f.d. prof, N.A.Nazarov taqrizi asosida

DYNAMICS AND TRENDS OF IDEOLOGICAL FACTORS IN IMPROVING THE MORALITY OF YOUTH

Annotation

This article analyzes the dynamics and directions of ideological factors in the upbringing of youth spirituality. The law of the dynamics of increasing the spirituality of youth depends on the consistency of the educational system. The article also discusses the issues of enriching the worldview of young people on the basis of interactive methods of spirituality in educational institutions, the formation of loyalty to the Motherland, a sense of ownership in its development, national pride.

Key words: Education, spirituality, culture, idea, culture, propaganda, technology, innovation, dynamics, trend, cultural heritage, national value, universal value, education, educational process, thinking, method, modernization, concept, national group.

ДИНАМИКА И ТЕНДЕНЦИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ПОВЫШЕНИИ ПРАВСТВЕННОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье анализируются динамика и направления идеологических факторов в воспитании духовности молодежи. Закон динамики повышения духовности молодежи зависит от системности воспитательной системы. Также в статье рассматриваются вопросы обогащения мировоззрения молодежи на основе интерактивных методов духовности в образовательных учреждениях, формирования лояльности к Родине, чувства сопричастности к ее развитию, национальной гордости.

Ключевые слова: Образование, духовность, культура, идея, культура, пропаганда, технология, инновация, динамика, тенденция, культурное наследие, национальная ценность, общечеловеческая ценность, образование, образовательный процесс, мышление, метод, модернизация, концепция, национальная группа.

YOSHLAR MA'NAVİYATINI YUKSALTIRISHDA G'OYAVIY OMILLAR DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda g'oyaviy omillar dinamikasi va tendensiyalari tahlil qilingan. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish dinamikasining qonuni ta'lim tizimining izchilligiga bog'liqdir. Shuningdek maqolada, ta'lim muassasalarida ma'naviyatni interfaol metodlar asosida yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish masalalari ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ma'naviyat, madaniyat, g'oya, axborot, targ'ibot, texnologiya, innovatsiya, dinamika, tendensiya, madaniy meros, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, tarbiya, o'quv jarayon, fikrlash, metod, modernizatsiya, konsepsiya, milliy g'urur.

Kirish. Ma'lumki, mustaqillik bizga o'z tariximizga, madaniy meros va qadriyatlarimizga xolis, sog'lom nazar bilan qarash, ularni har tomonlama chuqur ilmiy o'rganish, asrab-avaylash, ijodiy rivojlantirish imkoniyatlarini berdi. Ana shunday imkoniyatlardan biri yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning g'oyaviy ta'sirchanligini yanada oshirishga yo'naltirilganligi hamda turli xil targ'ibot usullarini ishlab chiqishning dinamikasi va tendensiyalarini rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Binobarin bu yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning asosiy shartlaridan biri sifatida etirof etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Globallashuv sharoitida ma'naviyatning namoyon bo'lish xususiyatlari, uni yoshlar ongiga singdirish hamda mazkur jarayonni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish bilan bog'liq masalalar E.Yusupov[2, 32] milliy g'oya va mafkuraning o'zaro munosabati, ularning mohiyati, ijtimoiy-tarixiy mazmuni va ahamiyatini, I.Soifnazarov[3], ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyatni, A.Begmatov[4] globallashuv sharoitida ma'naviy taraqqiyot va ma'naviy tarbiya, B.Umarov[5] globallashuv ziddiyatlari, S.Otamuratov[6] globallashuv: millatni asrash mas'uliyatini, N.Jurayev[7] Mafkuraviy immunitetni, K.Tulenova[8, 11] milliy g'oyaning ijtimoiy, falsafiy ahamiyatini, B.To'ychiyev, Sh.Paxrutdinov[9] innovatsion g'oyalarning jamiyat transformatsiyalanishga

ta'sirini, G.Tulenova[10, 80] barkamol yosh avlod – istiqlol tayanchini, A.Achilidiyev[11] millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda milliy g'oyaning o'rni, M.Quronov[12, 113] ogohlilik tarix va zamon saboqlarini, J.Mavlonov[13] davlat va xalq o'rtasida samarali muloqotni ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish masalalari o'zbekistonlik faylasuf olimlari tomonidan ham o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ilmiy-siyosiy merosida ma'naviyatning konseptual asoslari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy qarashlarida esa ma'naviyat va uning targ'iboti globallashuv sharoitiga mos talablar asosida yanada takomillashtirilmoqda.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda, "dinamik" tushunchasining ma'nosiga e'tibor qaratsak: dinamik qonun alohida olingan (individual) ob'ekt hatti-harakatini boshqaradigan, uning holatlaridagi bir xil, muhim aloqadorliklarni aniqlash imkonini beradigan qonundir[14]. Shu ma'noda, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish dinamikasining qonuni ta'lim tizimining izchilligiga bog'liqdir. Zero, ilg'or zamonaviy texnologiyalarini qo'llash tendensiyalarini yanada rivojlantirish, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihat hisoblanadi. Hozirda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya

konsepsiyasi" xalqimizning yangicha fikrlash tarziga o'tishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Buning natijasida, islohotlar ko'lamini mamlakatimizning eng chekka hududlarini ham qamrab olib, hududlarning nafaqat me'moriy qiyofasini tubdan yangilanishi, xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirish, balki olib borilayotgan islohotlar mazmunini chuqur anglagan holda shukronalik hissinin tuyib yashashlariga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi yangilanishlar bu sohada ham zamon talablarini e'tiborga olish, islohotlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatimiz ilm-fanining yangi qiyofasini yaratish va ushbu sohada o'zgarishlar dinamikasining samarali bo'lishiga erishish masalalariga yangicha qarashlar va yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz"[1] deb ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, tarbiya, ma'naviyat va milliy g'oya fanlarni uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirishda yangicha yondashish, no'anaviy usullar (texnik asoslar)dan foydalanish davr talabidir. "Texnologiya" tushunchasi "usul", "uslub", "mahorat" ma'nolarini anglatadi[15].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, demokratiyaning umuminsoniy tamoyillarini yoshlar ongiga singdirish ham texnika imkoniyatlaridan foydalanib amalga oshirishni taqozo etmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiya, ma'naviyat va milliy g'oya fanlarni o'qitishda har bir bosqich uchun darslik va o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, dars ishlanmalari, yordamchi materiallar, izohli lug'atlar, ko'rgazmali qurollar, elektron manbalar yaratilib, ular muntazam takomillashtirib borilmoqda. Yurtimizda har jihatdan sog'lom, ma'naviyatli, ma'rifatli, kelajakka ishonchi mustahkam vatanparvar avlod voyaga yetayotgan ekan, shu o'rinda ta'lim tizimi yo'nalishida olib borilayotgan yangilanishlarning ham salmoqli hissasi bor. Biroq ayni jabhada qilinishi lozim bo'lgan, bartaraf etilishi zarur bo'lgan kamchilik va qusurlar ham yetarli. Masalan, "Ma'naviyat"ning mazmuni real hayot, yoshlarning ma'naviy qiziqishlari va faoliyat sohalarida o'zaro bog'liqlik, integratsiya ta'minlanmagan, o'quv rejaları va dasturlarida takrorlanish holatlari mavjud, mazkur fanlarni o'qitishga tizimli yondashuv bilan bog'liq masalalarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shuning uchun ham, ma'naviyat turkumidagi fanlarning alohida xususiyati shundan iboratki, ular bolaning, o'spirinning, yoshlarning faqat aqli, tushunchalarigagina emas, balki, birinchi navbatda, qalbi, shuuri, hissiyotlari, tuyg'ulariga ta'sir o'tkazishi uchun tizimli yondashuv bo'lishi lozim. Zero, "Har qanday aqlli, bilimli odam avtomatik tarzda, o'z-o'zidan ma'naviyatli, odob-axloqli, farosatli kishi bo'lib qolmaydi"[16].

Darhaqiqat, insonning vijdonini uyg'otish, uning kimligini o'ziga kashf ettirish, qalbida imon-e'tiqodni yanada mustahkamlash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usi bilan tarbiyalash, ularning barkamol shaxs – komil inson bo'lib yetishishlari ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuniga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, ushbu soha mutaxassislaridan yuksak mahorat va mas'uliyat talab qiladi. Bugungi shiddatli rivojlanish va axborot asrida o'quvchi-talabalar diqqat-e'tiborini, ongu tafakkurini to'g'ri yo'naltirishda har bir fan o'qituvchisining darsni to'g'ri tashkil etishi, fanning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, turli xil innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ma'naviyatni targ'ib qilishlari lozim. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: "Dunyoqarashi keng, ma'nalan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan g'oyaviy tarbiya mexanizmining ta'siri kamaygani sezilmoqda. Jumladan,

uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oya turkumidagi fanlarga yetarlicha e'tibor berilmayotgani yosh avlod qalbi va ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda"[1] deb fikr bildiradilar. Darhaqiqat, o'quvchi-talabalarni turli xil ma'naviy tahdidlardan, mafkuraviy tajovuzlardan himoya qilishda tarbiya, ma'naviyat va milliy g'oya fanlarning o'rni katta. Mazkur fanlardan o'quvchi-talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishi, ularni ma'nalan yetuk qilib tarbiyalashlari, dars mashg'ulotlarida shakl, usul va vositalarni to'g'ri tanlashlariga, targ'ibot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishlariga bog'liq. Bejizga yunon olimi Aristotel "Axloq bilimidan past odam – orqaga ketayotgan odamd"[16], - deb uqtirmagan.

Tadqiqotimiz davomida "Ma'naviyat"ni yoshlar ongi va qalbiga singdirishda innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarning quyidagi shakllardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq:

birinchidan, "Ma'naviyat"ni singdirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanish ularda kurs mazmunini puxta o'zlashtirishlariga, barkamol shaxsni tarbiyalash ishini yanada samarali hal etishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, darslarda ko'rgazmalilikka – turli albom, plakatlar, badiiy asarlardan namunalar o'qishga alohida ahamiyat berish ham yaxshi natija beradi;

uchinchidan, turli muzeylarga, tarixiy joylarga, buyuk allomalar uchun mustaqillik yillarida barpo etilgan majmualarga ekskursiyalar uyushtirish o'quvchi-talabalarning ma'naviy-ruhiy, ichki – botiniy dunyosiga kuchli ta'sir o'tkazishini ham nazardan qochirmaslik lozim;

to'rtinchidan, tarixiy mavzulardagi, shu bilan bir qatorda, mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviy poklanish, ma'naviy tiklanish va milliy g'oyani rivojlantirishga oid yaratilgan filmlar namoyishi orqali darslarni tashkil qilish bilim piramidasiidagi "ko'rib – tushunish"ni ta'minlaydi;

beshinchidan, darslarni o'tkazishga fanimiz, adabiyot va san'atimizning ko'zga ko'ringan vakillarini taklif qilish, ular bilan jonli muloqotda bo'lish milliy va umuminsoniy qadriyatlarining targ'iboti samaradorligini yanada oshiradi.

Zamonaviy texnologiya o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda, asosan, interfaol usullardan foydalaniladi. Zamonaviy texnologiyalarning asosi bo'lgan interfaol texnologiyalar ma'naviyat, milliy mafkurani teran fikrlash bilan anglab olishda yoshlarning faoliyatini faollashtiradi, ularni mustaqil fikrlashga, faollikka, birdamlikka, jamoa bo'lib ishlash, bir-biriga qayg'urish orqali jipslikka chorlaydi va bilimlarni boyitishda samarali ta'sir o'tkazadi. Bu jarayonda, bevosita, ta'lim jarayoni markaziga o'quvchi-talaba shaxsi qo'yiladi.

Aytish kerakki, zamonaviy texnologiya jarayon sifatida uchta qoida bilan tavsiflanadi:

"jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash; izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish; qo'yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik muolaja va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi bilan bog'liq.

Zamonaviy sharoitda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida yangi g'oyalarga asoslangan Zamonaviy texnologiyalar va bu boradagi ilg'or xorij tajribalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning respublika uzluksiz ta'lim tizimi amaliyotiga samarali tatbiq etilayotgan ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga doir tajribalari orqasida ta'lim oluvchilarning o'quv faolligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion texnologiyalarning asosi bo'lgan zamonaviy interfaol metodlar alohida o'rin tutadi.

“Innovatsion ta’limning maqsadlari quyidagilarni nazarda tutadi:

ta’lim oluvchilarning yuqori darajadagi ma’naviy hamda intellektual-shaxsiy rivojlanishini ta’minlash;

zamonga yangicha yondashuv asosida yangi texnologiyalar, loyihalar yaratish va ular yordamida o’quv reja dasturlarining yangi, mos turlarini yaratish;

ta’lim oluvchilarning ilmiy tafakkur ko’nikmalarni egallashga shart-sharoit yaratish;

ijtimoiy-iqtisodiy hamda kasbiy sohalariga yangiliklarni kiritish metodologiyasini o’rgatish;

nazariyani amaliyot bilan, amaliyotni esa ishlab chiqarish bilan bog’lash;

o’quv-uslubiy materiallar bazasini mustahkamlash;

ta’lim sharoitlarining sotsial va iqtisodiy asoslarini kuchaytirish”[17].

Bilim qanchalik mustahkam bo’lsa, o’quvchi-talaba dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi. O’quvchi-talabalar uchun informatsion savodxonlik ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Uzluksiz ta’lim tizimi oldiga qo’yilgan davlat talablariga ko’ra, mazkur ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonining samardorligini oshirish, ilm-fanning so’nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, yuksak ma’naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qiladigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o’z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy g’oyani singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ta’limning muhim vazifalaridan biri – bu dunyoning globallasuvi va axborot kommunikatsiyalarining rivoji bilan bog’liq. Ta’lim tizimini yangilashda ta’limning barcha bo’g’inlarida tobora faol qo’llanilayotgan ilg’or pedagogik texnologiyalarning turli yo’nalishi o’quvchi-talabalarining ma’naviy kuchini ochish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Ta’lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko’tarishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, texnologiya, internet, masofaviy ta’lim, yagona axborot muhiti va shunga o’xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o’zining samarasini bermoqda. Ushbu vazifalarni samarali hal etish ta’lim-tarbiya jarayonida o’qituvchi-talabadan innovatsion texnologiyalarning asosi bo’lgan zamonaviy interfaol ta’lim usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda o’quvchi-talabalar ichki dunyosi, ongi va qalbiga ma’naviyatni singdirish hamda sog’lom dunyoqarashni rivojlantirishda

yuqori sifatli bo’lgan ta’limning asosiy maqsadlariga quyidagi yo’nalishlarni rivojlantirish bilan erishish mumkin:

ta’lim maskanlari faoliyatini raqobatdosh kadrlar orasidagi tayyorgarlikdan yuqori darajaga ko’tarish lozim;

ma’naviyat va milliy g’oya asoslari turkum fanlarini zamonaviy didaktik va yordamchi vositalardan foydalangan holda o’qitish;

ta’lim berish guruhlarining intellektual salohiyatini zamona talabi darajasiga ko’tarish;

ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish;

yoshlar ongida mafkuraviy bo’shliqning bo’lishiga yo’l qo’ymaslik;

malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi o’quv reja va dasturlari mazmuniga yoshlar ongida ma’naviyatni shakllantirish bilan bog’liq o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish.

O’qish jarayonida yosh avlodning qiziqishi, xohishi, yangi bilimlarga ega bo’lishi, o’z ustida tinimsiz ishlashi va javobgarlikni his qilishi muhim. Shuning uchun, bizningcha, ta’lim jarayoni quyidagi muhim qoidalarga asoslanishi kerak: o’quvchi-talabalarining psixologik holatini tushunish; o’quvchi-talabalarni real hayotiy muammolar bilan qiziqitira olish; nazariya bilan amaliyotni bog’lagan holda yoshlarni fikrlashga o’rgatish; yosh avlod bilan guruh bo’lib ishlashga qodir bo’lish va kerakli ijodiy darajaga erishish; o’qituvchilarning ilmiy bilimlaridan qat’iy nazar, ularning dars bera olishi, yoshlar bilan birga ishlay olishiga erishish lozim.

Ma’naviyat”ni yoshlar ongiga singdirish quyidagi 3 ta muhim shartga bog’liq: “birinchidan, ma’naviyat fanini o’qitadigan malakali kadrlarning zarurligi; ikkinchidan, mashg’ulotlarni tashkil etishda o’quvchi-talabalarining yoshi, psixologiyasi va bilim bazalarini hisobga olish; uchinchidan, o’qituvchilarning metodik jihatdan qurollangan bo’lishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida sanab o’tilgan barcha chora-tadbirlarni bir-biri bilan chambarchas bog’lagan holda uzluksiz ravishda olib borilishini ta’minlash va doimiy nazoratni o’rnatish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Zero, bu kabi islohotlar jahon hamjamiyatida O’zbekistonning mustahkam o’rni va rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, har qanday davlatning kelajagi yoshlar qo’lida bo’lganligi bois himoyalash chorasini ham avvalo yosh avlod ongini milliylik ruhida tarbiyalashdan boshlash zarur. Milliy qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongiga singdirish orqali ularda ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Bizning milliy qadriyatlarimiz urf-odat, an’analar va marosim ustunlariga qurilgan bino kabi. Umumbashariy ma’naviyat hamisha milliy ma’naviyatimiz negizida shakllanib, har safar milliy ma’naviyatimizdan milliy qadriyatlarimiz oziqlanib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2022. – B.440.
2. Yusupov E. Milliy g’oya va mafkura: mohiyati, ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ahamiyati. – Shimkent, 2001. – B 37.
3. Soifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. –Toshkent: Sharq, 2001;
4. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi favlsafiy tizimning yaratilishi. –Toshkent: Sharq, 2000; Ma’naviyat falsafasi. 2-kitob.-Toshkent, 2006; Ma’naviy tarbiya. –Toshkent.: Akademiya, 2006;
5. Umarov B., Jabbarov Sh. Globallasuv sharoitida ma’naviy tarbiya muammolari. –Toshkent.: Akademiya, 2011;
6. Otamuratov S. Globallasuv: millatni asrash mas’uliyati. –Toshkent: O’zbekiston, 2018. – 346 b.
7. Jurayev N. Mafkuraviy immunitet. – Toshkent: Ma’naviyat nashr, 2000. –B 15.
8. Tulenova K., Tillavoldiyeva M. Milliy g’oyani falsafiy masalalari. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2008. – B 11.
9. Shermuxamedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 229 b.
10. Tulenova G. Barkamol yosh avlod – istiqloq tayanchi. –Toshkent: Fan va texnologiya 2004. – 80 b
11. Achilidiyev A. Milliy istiklol g’oyasi – millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. – Toshkent: 2004. – B 19.
12. Quronov M. Ogohlik: tarix va zamon saboqlari. –Toshkent: Ma’naviyat, 2015. –113 b.
13. Mavlonov J. Davlat va xalq o’rtasida samarali muloqotni ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish. – Siyo.fan. doktori dis. ... avtoref, –Toshkent, 2019. – 233 b.

-
14. Nazarov Q. – Jahon falsafasi qomusi. Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2019. – B.112.
 15. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. – Toshkent: “Akademiya”, 2007. – B.23.
 16. Qo‘chqorov R., Tojiboyeva D. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. –Toshkent, “Ma’naviyat”, 2015. – B.233.
 17. Quronov M. Ezgu g‘oyalar ro‘yobi. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2011. – B.38.
 18. Mardonov Sh., Ergashev E. Pedagogik innovatsiyalarning mohiyati // Psixik taraqqiyot va ta’lim muammolari: ilmiy maqolalar to‘plami. –Toshkent: “Tamaddun”, 2016. – B.5.